PEDAGOGIKA

UDK: 458.14.014.13 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a1

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK MUSIQA TA’LIMI O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH

[1]Bahodir Shermuhammadovich Shermuhammadov
[1]Farg‘ona davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor

[2]Murodova Durdona Raimjon qizi
[2]Farg‘ona davlat universiteti, p.f.b.f.d., (PhD)

Annotatsiya

Pedagogik mahorat va kompetentlik har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati evaziga yuzaga keladigan natijadir. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish pedagogik va psixologik qonuniyatlarga tayangan holda turli shakl va metodlar, maxsus didaktik tamoyillarni qo‘llash asosida tashkil etiladi. Maqolada shu xususida fikr yuritilgan.

Аннотация

Педагогическое мастерство и компетентность – результат труда и творческой деятельности каждого педагога. Развитие педагогической компетентности организуется на основе использования различных форм и методов, специальных дидактических принципов, опираясь на педагогические и психологические закономерности. В статье придерживаются именно этого мнения.

Abstract

Pedagogical skill and competence is the result of each teacher's self work and creative work. The development of pedagogical competence is organized based on the use of various forms and methods, special didactic principles, relying on pedagogical and psychological laws. The article holds exactly that view.

Kalit so‘zlar: *pedagogik mahorat, zamonaviy texnologiya, pedagogik kompetentlik.*

Ключевые слова: *педагогическое мастерство, современные технологии, педагогическая компетентность.*

Key words: *pedagogical skill, modern technology, pedagogical competence.*

KIRISH

Mustaqillik omili ta’lim sohasida yangilanish zaruriyatini yuzaga keltirdi. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni talablari asosida ta’limning maqsadi, vazifalari hamda tamoyillarining tanlanishi birinchi darajali ehtiyojga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi xalq ta’limi muassasalarining oldiga yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo‘ydi. Zero, mamlakatimiz rahbari ta’kidlaganidek: «... mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim prinsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega». Shunday ekan, ta’lim-tarbiya tizimini modernizatsiyalash – o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda ta’sirchan mexanizmlarni topish, ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma’naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi jarayon bo‘lib, komil inson tarbiyasiga mos ravishda olib borilishi shart.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Uzluksiz ta’lim tizimini modernizatsiyalash O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Shu sababli Respublikadagi har bir o‘quv dargohi o‘zi tayyorlayotgan kadrlar sifatini takomillashtirishga alohida ahamiyat bermoqda. Fan va ishlab chiqarishda nano-texnologiyalar yaratilayotgan bir paytda yangi avlod darsliklarining yaratilishi, ta’limda reyting tizimining joriy etilishi, turli yo‘nalishlardagi nazoratlar, faol o‘qitish metodlaridan foydalanish va boshqa shu kabi tashkiliy ishlarning amalga oshirilishi, bo‘lg‘usi pedagog kadrlarning zamon talablariga mos holda bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlarini taqozo etadi.

PEDAGOGIKA

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanib borayotgan jamiyatimizda ta’lim tizimini takomillashtirish yo‘lida akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, umumiy o‘rta ta’lim maktablariga malakali kadrlarni tayyorlash, ularning kompetentligini oshirishni zarurat darajasiga ko‘tardi.

Bu esa hozirgi vaqtda davr talabiga javob beradigan mutaxassislarning nafaqat nazariy bilimlarini chuqur o‘rgangan holda, balki buyuk insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan, muomalaga kirisha oladigan, o‘z ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga ham katta e’tibor qaratilishi lozimligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi o‘qituvchilar malakasini va kompetentligini oshirishda yuksak pedagogik mahorat va zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan, madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash kerakligini yana bir bor isbotlamoqda.

Ma’lumki, uzluksiz ta’lim tizimini modernizatsiyalash O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Shu sababli respublikadagi har bir ta’lim muassasasi o‘zi tayyorlayotgan kadrlar sifatini takomillashtirishga alohida ahamiyat bermoqda.

Pedagog kadrlar tayyorlash bo‘yicha psixologik-pedagogik mahorat o‘tkazish strategiyasi bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kasbiy mahorati, ma’naviy qiyofasi, intellektual salohiyatini oshirish, mavjud ma’naviy-ma’rifiy ishlarning bugungi holatidan kelib chiqqan holda ta’lim bosqichlari o‘rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashda xizmat qiladi. Chunki pedagogik mahorat va pedagog kompetentlik subyektning shaxsiy-malakaviy sifatlarini belgilovchi, uning ijodiy taraqqiy topishiga ko‘makchi, pedagogik jamoaning muvaffaqiyatini oshiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi – ta’lim tizimining holati shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligiga bog‘liq. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi omillar ham aynan ta’lim sohasi rivojlanishi va pedagog kadrlarni tayyorlashga bog‘liqdir.

O‘qituvchilik – insoniyat jamiyati tarixi boshlangandan e’tiboran davom etib, shu bilan birga, hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e’tiborga loyiq, e’zozlab kelingan kasb. Bu borada birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday fikr bildiradi: «Erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o‘z haq-huquqlarini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Shu jihatdan olganda, davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi omillar ham aynan ta’lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir.

Bugungi globallashuv davrida zamonaviy o‘qituvchilar kompetentligi quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- insonparvarlik;
- kommunikativlik;
- kasbiy mustaqillik, ishchanlik, hissiy barqarorlik, o‘z ishiga ijodiy yondashish;
- pedagogik texnika va texnologiyalardan oqilona foydalanish;
- nutq texnikasi, o‘z tovush, mimika va gavdasini boshqarish, jamoa va shaxsga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatlarini takomillashtirish;
- zamonaviy fan va ishlab chiqarishdagi muammolar, pedagogik, axborot va yuqori darajadagi texnologiyalardan xabardor bo‘lish hamda ulardan zarurlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish va boshqalar.

Pedagogik mahorat va kompetentlik

– pedagog shaxsining tajriba orqali orttirgan xususiyati, biror sohasidagi moslashuvchan ko‘nikma va ijodkorlik asosida hosil bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarining nazariy darajasidir. Bunday sifatlar yoshlarni tanlagan kasbiga hurmat uyg‘otish jarayonidagi kasbiy g‘ururni shakllantirishda xizmat qiladi.

Shu jihatdan barkamol avlod tarbiyasida o‘qituvchi-tarbiyachining mahorat egasi bo‘lishi muhimdir.

Pedagogik mahorat va kompetentlik kasbga nisbatan tavsifnoma berish, ta’lim jarayonidagi o‘zlashtirish saviyasini egallash, tarbiya jarayonida muayyan vazifani bajarishdagi kasbiy xislatlarni ta’riflashda qo‘llaniladi.

Pedagogik mahorat va kompetentlik o‘qituvchidan izlanish, mahorat – pedagogik texnologiyalarni qo‘llay bilish, o‘z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishni talab qiladi.

Demak, o‘qituvchining ko‘p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, zo‘r san’atkor va fidoyi bo‘lishi hamda yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biri ekan, o‘qituvchilar pedagogik mahorat va kompetentlikni egallashlari lozim.

Demak, pedagogik mahorat va pedagogik kompetentlik barcha pedagoglar uchun qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati evaziga yuzaga keladigan jarayondir. Shu jihatdan olganda, pedagog mutaxassislarning kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- shaxs ma’naviy-axloqiy sifatlarining faol shakllanishi, pedagogik texnologiyalarning tamoyillari bilan bog‘liqlikda keyingi amaliy faoliyatda ta’lim jarayonini pedagogik jihatdan bir butun tarzda tashkil etish va amalga oshirish;
- ta’limga texnologik yondashuv asosida mashg‘ulotlarning o‘quv maqsadini qo‘ya olish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish;
- amaliy mashg‘ulotlarni modellashtirish, qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini bashorat qila olish, xatolarni tuzata olish strategiyasini ishlab chiqish;
- ta’lim oluvchi shaxsining har tomonlama taraqqiy etishi, ta’lim jarayonining «jonli», ijodiy tashkil etishga yordam beruvchi ta’limning zamonaviy integrativ, bilish faoliyatini boshqarish metodlarini egallash;
- ta’lim standartlarining yangi talablari va o‘zining ehtiyojlari bilan bog‘liqlikda o‘qitish va ta’lim sifatini tashxis etishining turli usul va vositalaridan samarali foydalanish, bundan tashqari yangi metodik yo‘llarni mustaqil yaratish va nazorat qilish ko‘nikmalarini egallash;
- pedagogika va psixologiyaga oid yangi adabiyotlarni muntazam mutolaa qilib borish;
- ilg‘or pedagogik tajribalar va pedagogika fanining zamonaviy yutuqlaridan amaliyotda foydalanib, ijodkor, mustaqil fikrlovchi va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantiruvchi ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarni olib borish.

Bunda o‘qituvchining faoliyati quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- o‘z-o‘zini rivojlantirish;
- o‘quv faoliyatini ilg‘or texnologiyalar asosida qurish;
- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning qaror topishiga zamin yaratish;
- o‘quv faoliyatining o‘quvchilar ichki motiviga asoslangan izlanuvchanlik yo‘nalishining kasb etishini ta’minlash va boshqalar.

Pedagogik faoliyat o‘quvchilarga uch xil pedagogik ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutadi: nimani o‘qitish, kimni o‘qitish va qanday o‘qitish? Demak, mohir o‘qituvchi o‘quv predmetidan material tanlash va uni guruhlarga ajratish uquvini oshirishi, o‘quvchilarning mavjud imkoniyatlari, ta’limning umumiy maqsadlarini amalga oshirib, o‘quvchilarga ta’- sir ko‘rsatishning shakl, usul va metodlarini oqilona tanlashi va qo‘llashi lozim. Tabiiyki, mohir o‘qituvchi o‘zining shaxsiy faoliyatini o‘zi tahlil qilib boradi. Ish davomida o‘quvchilar va o‘zining shaxsiy mehnati hamda sarflangan vaqtini hisobga olish, ishdagi kamchiliklar mavjud joylarni ko‘ra bilish va ularni bar- taraf etish yo‘llarini tanlash, o‘z tajribasini va hamkasblarining ishlarini tahlil qilish o‘ta muhim. Agar pedagogik faoliyatning bar- cha sanab o‘tilgan tarkibiy qismlari mavjud bo‘lsa, u holda uni psixologik jihatdan to‘la va yetuk, deb hisoblash mumkin.

Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish uchun faoliyat davomida pedagogik vazifa va maqsadlarni qo‘yish, uni o‘zgartirish, pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va klassifikatsiyalash, qaror qabul qilish, pedagogik tafakkur va pe- dagogik intuitsiya, tahlil etish, baholash, o‘zini o‘zi tuzatish, pedagogik refleksiya va boshqalar kabi muhim kasbiy sifatlar mujassamlanadi.

NATIJALAR

Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish bevosita uning faoliyatida ro‘y beradigan o‘zgarishlar, motivlar, maqsadlar, yangi vositalarni qo‘llash, usullar hamda faoliyat dasturi bilan bog‘liq holda kechadi. Turli pedagogik o‘zgarishlar asosida o‘qituvchi faoliyati shakllanadi. Pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbar, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ichki dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg‘ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik va zaif bo‘lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo‘lgan shaxs hisoblanadi.

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga kam kuch sarflab, ko‘proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat va kompetentlik o‘qituvchidan odatdan tashqari kuch-g‘ayrat, qat’iyat, tirishqoqlik, tadqiqotlarni olib borishga intilish, yangi vaziyat, yangi jamoaga moslashuvchanlik, samimiyat, to‘g‘rilik va halollik, o‘tkir aql-idrok, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko‘rish malakasini talab qiladi.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan har qanday g‘oya konseptual hujjat sifatida namoyon bo‘lmoqda va mamlakatimizning ravnaqi hamda uning gullab-yashnashi uchun zamin yaratmoqda. Xuddi shunday ta’lim tizimini takomillashtirish va modernizatsiyalash bosqichida ham Prezidentimiz tomonidan qator ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqdaki, bularning barchasi Yurtboshimizning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Kelajagi buyuk bo‘lgan mustaqil, demokratik, huquqiy davlatni barpo etish ma’naviy jihatdan yetuk, axloqan pok qilib tarbiyalangan yoshlar qo‘lida bo‘ladi. Shunday ekan, yoshlar tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy va ma’naviy sohada quyidagilarga e’tibor qaratilishi lozimligi ta’kidlanadi:

- insonparvarlik g‘oyalariga sodiqlik;
- milliy-istiqlol g‘oyasiga sodiqlik;
- ma’naviyat va axloqiylikni qayta tiklash; - qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklar, adabiyot va san’atni bilish hamda ko‘paytirish;
- hur fikrlilik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish;
- ijtimoiy adolat qoidalarini ro‘yobga chiqarish;
- xalqimizning milliy, tarixiy va madaniy an’analari, ma’naviy tajribasini ta’lim va tarbiya tizimiga uzviy ravishda kiritish;
- ijodning barcha turlarini rivojlantirish.

Prezidentimiz qo‘yayotgan talablardan biri – pedagogik tizimda eng yetuk, tajribali o‘qituvchilarning faoliyat ko‘rsatishidir. Ushbu talabdan kelib chiqib, respublikamizda juda ulkan islohotlar amalga oshirildi.

Yurtboshimiz o‘zining qator asarlarida ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning mazmuni erkin, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilishini ta’kidlab o‘tadi. Bu jarayonda «o‘qituvchi-o‘quvchi» munosabatini o‘zgartirish talab etiladi. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi lozim. Demak, o‘qituvchiga qo‘yiladigan yana bir muhim talab, yangi pedagogik texnologiyalarni chuqur tushunib yetish va bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdan iborat. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi.

Demak, hozirgi kunda ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning xilma-xil faoliyatini tashkil etish, ularni Vatanga sadoqatli, yovuz g‘oyalardan holi, bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatsevar, erkin fikrli, ongli, barkamol inson qilib o‘stirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

XULOSA

Shunday qilib, davlatimiz tomonidan xalq ta’limi sohasiga qo‘yilayotgan vazifalarni bajarishda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish pedagogik va psixologik qonuniyatlarga tayangan holda turli shakl va metodlar orqali, maxsus didaktik tamoyillarni qo‘llash asosida tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va jamiyat talabidan kelib chiqib, bugungi kunda o‘quvchi faoliyati o‘quv jarayonida bilimlarni o‘rganish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish asosida tashkil qilinsa, o‘qituvchi faoliyati pedagogik vazifalarni qo‘yish, maqsadga erishish, faoliyat predmeti, vositalarini aniqlash, ularni bajarish usullarini oqilona tanlash, o‘quvchi faoliyatini boshqarish, ilg‘or o‘zaro hamkorlikka asoslangan ta’lim-tarbiyani tashkil qilish natijasida amalga oshadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-жилд. – Т.: «Ўзбекистон», 1999.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. / Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси, Вазирлар Маҳкамаси ва Президент Девонининг Ўзбекистон мустақиллигининг 16 йиллигига бағишланган қўшма мажлисидаги маърузаси.
3. Абдуллаева Ш.А., Ахатова Д., Собиров Б. Педагогика. Маълумотнома. – Т.: «Фан ва технологиялар», 2011. –276-б.
4. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. – Қарши: «Насаф», 2006. –8-б.